PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

5-6-SINFLARDA LINGVISTIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING QO‘LLANISHI

G‘iyosova Mohinur Yoqubjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta’lim maktablarining 5–6-sinf o‘quvchilarida lingvistik ko‘nikmalarni shakllantirishda interfaol metodlarning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Interfaol metodlarning psixologik va pedagogik asoslari tahlil qilinib, ularni ona tili darslarida qo‘llash orqali fonetik, leksik, grammatik, orfografik va nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning amaliy mexanizmlari taklif etilgan.Tovushlar poyezdi, sehrli kataklar, ma’no zanjiri,so‘z boyligi kabi metodlarning dars jarayonida qo‘llanish namunalari keltirilgan. Tadqiqot natijalari interfaol metodlar lingvistik ko‘nikmalarni samarali shakllantirish bilan birga, o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga ham xizmat qilishini ko‘rsatgan.

Kalit so‘zlar: lingvistik ko‘nikma,interfaol metod,ona tili ta’limi,5-6-sinf,kompetensiyaviy yondashuv.

Kirish.

Bugungi kunda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o‘quvchining mustaqil va kreativ fikrlashi,og‘zaki nutqining ravon bo‘lishi,erkin muloqot qilishi va fikrlarini yetkazib bera olishi va o‘quv jarayonida o‘z bilimlaridan samarali foydalanishni taqazo etmoqda.Ayniqsa,ona tili ta’limida o‘quvchining fikrlashi, muomila madaniyati va ijtimoiylashuvi muhim ahamiyat kasb etadi.5-6-sinflarda o‘quvchilarning fiklashi va tafakkuri jadal rivojlanadi va bu lingvistik ko‘nikmalarini tizimli shakllantirish uchun qulay payt hisoblanadi.Shu bois dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Lingvistik ko‘nikmalarning mazmuni va mohiyati

Lingvistik ko‘nikma – bu til birliklarini (tovush, so‘z, so‘z birikmasi, gap, matn) tushunish, tahlil qilish, qiyoslash va amaliyotda nutqiy vaziyatga mos tarzda qo‘llash bo‘yicha avtomatlashgan harakatlar majmuidir.Mazkur ko‘nikmani shakllantirishda an’anaviy yondashuvlar ya’ni qoida yodlash yoki mashq bajarish bilan cheklanib qoladi. “5-sinfdan 6-sinfga o‘tish davrida o‘quvchilarda til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaning pasayishi kuzatiladi. Buning asosiy sababi – monoton, bir xil shablondagi mashqlar, faqat qoida yodlashga qaratilgan topshiriqlar tizimidir”[1] Ushbu muammoning yechimlaridan biri – interfaol metodlarni ona tili darslariga izchil joriy etishdir. Interfaol metodlar o‘quvchilarning, faol muloqotiga, mustaqil va ijodiy fikrlashiga asoslanadi. Aynan shu jihatlar ularni lingvistik ko‘nikmalarni shakllantirishning samarali vositasi sifatida e’tirof etish imkonini beradi.

Interfaol metodlarning ta’lim jarayonidagi o‘rni

Interfaol metodlar o‘quvchining mustaqil fikrlashga undash,o‘quvchini faollashtirish, til bilimlarini shakllantirish,o‘z bilim va ko‘nikmalarini tahlil qilish va baholash imkonini beradi.Interfaol metodlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

1.Darsga qiziqishi ortadi va o‘quvchi faollashadi.

2.Ijodiy va tanqidiy fikrlash rivojlanadi.

[1] Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishda kreativ yondashuv: 5–7-sinflar misolida. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 160 b.

3.Jamoa va juft bo‘lib ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.

4.Nutqiy faollik kuchayadi.

Shu sabali ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi. “O‘quvchining mustaqil ishlash faolligini oshirish, refleksiv ko‘nikmalarini rivojlantirish – aynan 5–6-sinflar uchun muhim, chunki bu bosqichda o‘quvchida o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasi endi shakllanadi”[2] .

Lingvistik ko‘nikmalarni rivojlantirishda qo‘llaniladigan interfaol metodlar

“Tovushlar poyezdi” metodi

Maqsad:tovush va harflarni ongli nazorat qilish,to‘g‘ri talaffuz va fonematik eshitishni rivojlantirish.

Doskaga poyezd rasmi chiziladi, har bir vagonga bir harf yoziladi. O‘quvchi “haydovchi” bo‘lib, poyezdni “haydash” uchun vagonlardagi harflarga mos tovushlarni ketma-ket aniq talaffuz qilib berishi kerak. Masalan, “kitob” vagonlari uchun [k], [i], [t], [o],[b] tovushlarini alohida va qo‘shib aytadi. Noto‘g‘ri talaffuz qilsa, “poyezd relsdan chiqdi” deb hisoblanadi va boshqa o‘quvchi davom ettiradi.

Natija:harf va tovushlarni bir-biridan farqlash,adabiy til talaffuz me’yorlarini o‘rganish.

“Sehrli kataklar”

Maqsad:Imlo qoidalarini va imloviy savodxonlikni yaxshilash.

Doskaga kataklardan iborat jadval chiziladi. Har bir katakda bitta harf yashiringan bo‘lib, o‘quvchi o‘qituvchi aytgan so‘zning harflarini ketma-ket ochishi kerak. Masalan, “mutolaa” so‘zi – o‘quvchi “m”, “u”, “t”, “o”, “l”, “a”, “a” harflarini to‘g‘ri topib, yozib boradi. Xatosi bo‘lsa, katak qizil rangga bo‘yaladi. Barcha kataklarni to‘g‘ri ochgan o‘quvchi “sehrli so‘z”ni topgan hisoblanadi.

Natija: Imlo qoidalari mustahkamlanadi va so‘z boyligi oshiriladi.

“So‘z boyligi auksioni”

Maqsad: so‘z boyligini oshirish va leksik birliklarni o‘rinli qo‘llash,sinonim va antonimlarni farqlash.

Sinf guruhlarga bo‘linadi. O‘qituvchi biror mavzu yoki bir so‘z (chiroyli) aytadi. Har bir guruh navbat bilan shu mavzuga oid so‘zlar yoki sinonim so‘z aytadi (“go‘zal”, “ko‘rkam”, suluv”). Takror so‘z aytgan yoki 5 soniya ichida javob berolmagan guruh auksiondan chiqadi. Eng oxirgi qolgan guruh g‘olib bo‘ladi.

Natija: So‘z boyligi ortadi va sinonim topish va qo‘llash ko‘nimasi rivojlanadi

“Ma’no zanjiri”

Maqsad:so‘z ma’nosini tushunish,semantik ma’nosini anglash.

O‘quvchi bitta so‘z aytadi (masalan, “kompyuter”). Keyingi o‘quvchi shu so‘zning ma’nosiga bog‘liq (texnika,qurilma,internet) yoki semantik jihatdan yaqin so‘z aytishi kerak. Masalan:(tezkor

[2] Mengliyev B., Shukurova N. Til ta’limida kompetensiyaviy yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. – 200 b.

xotira,qattiq disk,ilova).Har bir so‘zning oldingi so‘z bilan aloqasini bir jumla bilan izohlash shart. Bog‘liqlikni asoslab berolmagan o‘quvchi o‘yindan chiqadi.

Natija:so’zlarning ma’no qirralari farqlanadi va fikrni mantiqiy va izchil ifodalash ko‘nikmasi rivojlanadi .

Interfaol metodlarning lingvistik ko‘nikmalarga ta’siri.

Interfaol metodlardan muntazam foydalanish natijasida o‘quvchilarda quyidagi natijalar kuzatiladi:

Birinchidan, o‘quvchilar til hodisalarini mustaqil tahlil qilishga o‘rganadilar. Ikkinchidan, ularning og‘zaki va yozma nutqi rivojlanadi. Uchinchidan, muloqot madaniyati va hamkorlikda va juft bo‘lib ishlash ko‘nikmalari shakllanadi. To‘rtinchidan, o‘quvchilarning darsdagi faolligi ortadi va bilimlarni o‘zlashtirish darajasi yaxshilanadi.Shuningdek, interfaol metodlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularni ta’lim jarayonida faollashtiradi Bu esa lingvistik kompetensiyalarning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Interfaol metodlar 5-6-sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarda to‘liq mos keladi.Interfaol metodlar o‘quvchining mustaqil va kreativ fikrlashi,muloqot jarayonida faolligi,til birliklaridan kontekstga mos ravishda qo‘llash ko‘nikmasini rivojlantiradi.Tovushlar poyezdi, sehrli kataklar, so‘z boyligi auksioni va ma’no zanjiri metodlaridan maqsadli foydalanish tavsiya etiladi .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamroyev G‘. Ona tili o‘qitishda kreativ yondashuv: 5–7-sinflar misolida. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 160 b.
2. Mengliyev B., Shukurova N. Til ta’limida kompetensiyaviy yondashuv: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2023. – 200 b.